



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 3 (5)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

**Farg‘ona davlat universiteti uchun
MAXSUS SON**

3

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Abduvoxidov A.A. Moliyaviy bilim va ko‘nikmalarning iqtisodiy mazmuni hamda nazariy tamoyillari.	7
Olimova N.X. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanishni rivojlantirish strategiyalari.	11
Эргашев А.Х. Исследование текущих тенденций и ограничений инвестиционной активности предприятий в стране.....	15
Yulchiyev A.O. Turistik destinatsiya tabiati va rivojlanish omillari: taklif va talabga asoslangan yondashuvlar.....	19
Mirzayev A.T., Ne‘matova D.A. Sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	23
Karimov Sh.X. Turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga hududiy salohiyatning ta‘sirini baholash.....	30
O‘rinboyev D.B. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida inqirozning shakllanish bosqichlari va diagnostik ko‘rsatkichlari tahlili.....	34
Goziyev M.Sh., Bahodirova M.R. Digital transformation of corporate governance in developing economies (case of Uzbekistan).....	44
Israilova M.V. Sanatoriya-kurort sohasida mulkchilik munosabatlarini transformatsiyalashning ayrim masalalari.....	48
Turg‘unov M.M. Milliy iqtisodiyotda oziq-ovqat sanoati rivojlanishining tarmoq xususiyatlari.....	53
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalari.....	58
Mannopova M.S. Agrar sohaning barqaror rivojlanishida meva-sabzavotchilik klasterlari: tuzilma, yo‘nalishlar va asosiy tamoyillar.....	63
Nematova Sh.E. Raqamli transformatsiya sharoitida xizmatlar sifat menejmenti va kichik biznes subyektlarining iqtisodiy barqarorligi.....	68
Rasulov U.A. Raqamli iqtisodiyot — yangi O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarining tayanch omili.....	72
Raximov D.Sh. Sanoat ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish jarayonlari va qayta ishlash tarmog‘ining raqobatbardoshlikka ta‘siri.....	77
Teshabayeva O.N. Turkiya tajribasi asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	81
Jumakulov Z.I., Tursunaliyeva K. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi: holati, rivojlanish tendentsiyalari va islohotlar samarasi.....	85
Jaksimova Z.R. Ko‘lam samarasi turlari, ularning tavsifi va ko‘lam samarasi asosida samaradorlikni oshirishning nazariy modellari.....	88
Yunusov A.R. "Green economy" - the problem of teaching at universities in Central Asia using the experience of european union universities.....	92
Юнусов Ш. Роль цифровизации и искусственного интеллекта в углублении региональных экономических отношений в Центральной Азии.....	95
Xalmatjanova G.D. Klasterlarni boshqarishning samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish.....	104
Xomidov Q.Q. O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqarishning nazariy jihatlari.....	109
Jo‘rayev H.Q. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining strategik salohiyatini baholashning jarayon va tizimli yondashuvlari	114
Xakimov D.R. Oliy ta‘lim sohasida bozor munosabatlari rivojlanishining asosiy omillari.....	117
To‘xtasinova D. Xalqaro hamkorlikning eksport-import oqimlarini tartibga solishdagi roli.....	123
Xolmatov B.A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tejamkorlik darajasini statistik baholash.....	127
Jumakulov Z.I., Baxromov B. O‘zbekiston davlat byudjetini shakllantirishda soliqlarning roli.....	131
To‘ychiyeva B.V. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining barqarorligini ta‘minlashda strategik boshqaruvning ilmiy-nazariy asoslari.....	133
Abdisamatov Sh.A. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va iqtisodiy o‘shish barqarorligining asoslari hamda zamonaviy muammolari.....	141
Asraqulov A.S. Turistik xizmatlar bozorining rivojlanish xususiyatlari va turistik xizmat turlari diversifikatsiyalashuviga yondashuvlar.....	145
Rakhimova K.N., Mrs. Oubih Warda Institutional and innovative mechanisms for the development of digital tourism in Uzbekistan.....	151
Muxtorov A.A., Mirzayev A.T. Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini boshqarishning omilli tahlili.....	154
Usibjonova G.U., Mannopova M.S. Milliy iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta‘minlashning ilmiy asoslari.....	161

Oltiboyeva M.A., Teshabayeva O.N. O‘zbekiston turizm logistikasini rivojlantirishda raqamli innovatsiyalarning roli.....	166
Ximmatova G.K., To‘xtasinova D. Xizmatlar bozorida korxonalarining raqobat ustunligini barqarorlashtirish.....	170
Oltiyeva M.A., Mirzayev A.T. Hududlar resurs salohiyatini baholash orqali potensial turistik resurslarni turistik faoliyatga kiritish imkoniyatlarini modellashtirish.....	174
Xasanova R., Teshabayeva O.N. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida diversifikatsiyaning hududiy jihatlari.....	180
Zufarova G.A. Ta‘lim bitiruvchilarining ko‘nikmalari va mehnat bozori ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik muammosi.....	184
Ergashev J.S. "Yashil marketing" konsepsiyasi asosida energiya tejamkor qurilish materiallari bozorini rivojlantirish	187
O‘rinov A.A. Tikuv-trikotaj mahsulotlariga talabni shakllantirish va sotishni rag‘batlantirish tizimining o‘ziga xos xususiyatlari.....	192
Uzganbayeva D.T., Mo‘ydinov A. Sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida innovatsion salohiyatini iqtisodiy-matematik va faoliyatni boshqaruv mexanizmlari takomillashtirish.....	197
Саиджоновна З.Б. Ўзбекистонда саноат корхоналарига инвестиция жалб қилишнинг иқтисодий самарадорлиги.....	201
Qodirov Z.E. Fermer xo‘jaliklari faoliyatini rivojlantirishning imitatsion modellar tizimi.....	205
Ahmadaliyeva R.A., O‘rinov A.A. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilishning iqtisodiy ahamiyati.....	210
Хайдаров Х. Сугурта муносабатларида сугурта тариф ставкаларини ахамияти ва муаммолари.....	214
Махамადийев М.М. Iqtisodiy tarmoqlarda innovatsion g‘oyalar bankidan foydalanishning tahliliy asoslari..	217
Madaminov G‘.M. Harbiy xizmatchilarni moddiy rag‘batlantirishda qo‘shimcha to‘lovlar tizimining iqtisodiy va institutsional asoslari.....	222
Nazirboyev D.D. Moliyaviy siyosat va ijtimoiy barqarorlik omillari.....	227
Хасанова С.И. Ишлаб чиқариш корхоналари бошқаруви назарий асослари.....	232
Teshaboyev B.A. Econometric analysis of internal and external factors affecting the management efficiency of tourism enterprises.....	237
Mustafoyeva Z.A. Fintech texnologiyalarining moliya tizimi rivojlanishidagi o‘rni va istiqbollari.....	242
Xolmirzayev U.A., Muradova N.R. Rivojlanish strategiyalarida raqobat va hamkorlik o‘rtasidagi muvozanat: nazariy yondashuv va amaliy tahlil.....	245
Sadullayev R.P. Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishda soliq mexanizmidan samarali foydalanish metodologiyasi: xorij tajribasi.....	249
Мурадов Б.Х., Аширов Д.Ф., Бахтиёрв Т.Д., Собиров Х.С. Қудратов М.Н. Основные факторы инновационных процессов АЭС, устойчивых источников энергии и перехода к «Зелёной» экономике.....	258
Tursunov O.B. Transport-logistika tizimini rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash.....	269
Sayitbayev Sh.D. Yangi O‘zbekistonda moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish.....	274
Ibodulloyeva Z.S. Aligning energy systems engineering education with Uzbekistan’s renewable energy transition: rethinking curriculum reform through a policy–education lens.....	278
Salimova Z.S. Investitsiyalar va aholi daromadlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlashning konseptual asoslari.....	282
G‘aybullayeva Z.R., Oxunjonova K.K. Respublika tijorat banklari operatsiyalari va ularni rivojlantirish masalalari.....	286
Абдуллоев А.Ж. Ўзбекистонда маҳсулот сифатини бошқариш амалиётини давлат томонидан тартибга солиш йўналишлари.....	289
Rahimova M.I. O‘zbekistonda ayollar rahbarligidagi korxonalarining eksport faoliyati va hududiy rivojlanish tendensiyalari.....	294
Rahmatullayeva D.O. Bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri.....	299
Valikulov Sh.Z. “O‘zbekneftgaz” AJ da investitsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari va ularni tizimli tahlil qilish.....	305
Турабекова Г.И. Яшил иқтисодиёт ва инсониятнинг барқарор келажаги учун йўл.....	312
Tajirboyev S.O. Xalqaro investitsiyalar va kapital oqimlari.....	316
Madaminov A.M. Sanoat korxonalari faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlaridan foydalanish istiqbollari (oziq-ovqat sanoati misolida).....	319

**BANDLIK TUZILMASINING O‘ZGARISHI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA
TA’SIRI**

**ИЗМЕНЕНИЯ В СТРУКТУРЕ ЗАНЯТОСТИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА
ЭКОНОМИЧЕСКУЮ ЭФФЕКТИВНОСТЬ**

**CHANGES IN THE EMPLOYMENT STRUCTURE AND THEIR IMPACT ON
ECONOMIC EFFICIENCY**

Rahmatullayeva Dilbar Olimovna

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti,
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada bandlik tuzilmasida yuz berayotgan tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, iqtisodiyot tarmoqlari kesimida mehnat resurslarining qayta taqsimlanishi, bandlikning sektorlar-aro siljishi hamda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi sohalarga o‘tish jarayonlarining yalpi ichki mahsulot o‘sishi va mehnat unumdorligiga ta’siri o‘rganiladi.

Tadqiqot davomida bandlik tuzilmasining modernizatsiyasi iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omili ekanligi ilmiy asoslab beriladi. Shuningdek, bandlikdagi sifat o‘zgarishlari va innovatsion faoliyatning kuchayishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlanadi.

Maqola natijalari iqtisodiy siyosatni shakllantirishda hamda mehnat bozorini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: bandlik tuzilmasi, iqtisodiy samaradorlik, mehnat unumdorligi, tarkibiy o‘zgarishlar, mehnat bozori, sektorlar-aro siljish.

В статье рассматривается влияние структурных изменений в занятости на экономическую эффективность с теоретической и практической точек зрения. Особое внимание уделяется перераспределению трудовых ресурсов между секторами экономики, межсекторальным сдвигам занятости, а также переходу к отраслям с высокой добавленной стоимостью и их влиянию на рост валового внутреннего продукта и производительность труда. В ходе исследования научно обосновано, что модернизация структуры занятости является важным фактором повышения экономической эффективности. Также выявлена взаимосвязь между качественными изменениями занятости и активизацией инновационной деятельности. Результаты исследования могут быть использованы при разработке экономической политики и стратегий развития рынка труда.

Ключевые слова: структура занятости, экономическая эффективность, производительность труда, структурные изменения, рынок труда, межсекторальные сдвиги.

This article analyzes the impact of structural changes in employment composition on economic efficiency from both theoretical and practical perspectives. In particular, the reallocation of labor resources across economic sectors, intersectoral shifts in employment, and transitions toward high value-added industries are examined in terms of their influence on gross domestic product growth and labor productivity. The study substantiates that the modernization of employment structure serves as a key factor in enhancing economic efficiency. Furthermore, the relationship between qualitative changes in employment and the intensification of innovative activity is identified. The findings of the article are valuable for the formulation of economic policy and the development of effective labor market strategies.

Keywords: employment structure, economic efficiency, labor productivity, structural changes, labor market, intersectoral shift.

Hozirgi globallashuv va iqtisodiy transformatsiya sharoitida mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotining barqarorligi ko‘p jihatdan mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligiga bog‘liq bo‘lib, ushbu jarayonda bandlik tuzilmasining o‘zgarishi muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasida mehnat resurslarining qayta taqsimlanishi, bandlikning an‘anaviy sohalardan yuqori texnologiyali va innovatsion yo‘nalishlarga siljishi iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, mehnat unumdorligi past bo‘lgan tarmoqlardan yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi sohalarga ishchi kuchining oqimi iqtisodiy o‘shish sur‘atlariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida raqamlashtirish, sanoatning modernizatsiyasi, xizmatlar sohasining kengayishi hamda innovatsion faoliyatning faollashuvi bandlik tuzilmasida sezilarli tarkibiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu jarayonlar natijasida mehnat bozorida kasbiy malaka va kompetensiyalarga bo‘lgan talab keskin o‘zgarib, intellektual mehnat ulushi ortib bormoqda. Natijada bandlikning sifat jihatidan yangilanishi iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim sharti sifatida qaralmoqda.

Mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bandlik tuzilmasidagi nomutanosibliklar iqtisodiy resurslardan samarasiz foydalanishga, yashirin bandlik va norasmiy sektor ulushining ortishiga olib kelishi mumkin. Aksincha, bandlik tuzilmasini iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlariga mos ravishda optimallashtirish yalpi ichki mahsulot o‘shishi, mehnat unumdorligi oshishi hamda aholining real daromadlari ko‘payishiga xizmat qiladi. Shu bois bandlik tuzilmasining iqtisodiy samaradorlikka ta‘sirini chuqur o‘rganish zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar, sanoatlashtirish jarayonlari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, shuningdek, raqamli iqtisodiyotga o‘tish bandlik tuzilmasida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Mazkur islohotlarning huquqiy asosini “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonun tashkil etib, unda mehnat bozorini tartibga solishning zamonaviy mexanizmlari belgilangan. Qonun tamoyillari “O‘zbekiston – 2030” [1] strategiyasi bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, strategiyada barqaror iqtisodiy o‘shish orqali daromadi yuqori davlatlar qatoridan o‘rin olish, ta‘lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini xalqaro standartlarga yetkazish asosiy maqsad qilingan. Xususan, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmon bilan tasdiqlangan strategiyada barqaror iqtisodiy o‘shish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish, xalqaro standartlarga javob beradigan ta‘lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish asosiy g‘oya sifatida belgilangan.

Shuningdek, “Raqamli O‘zbekiston – 2030” [2] dasturi doirasida IT-sohasining jadal rivojlanishi va IT-Park faoliyati orqali yoshlar va ayollarning raqamli bandlikka jalb etilishi, frilanserlik va masofaviy ish shakllarining kengayishi mehnat bozorida yangi segment – “IT-sinf”ning shakllanishiga olib kelmoqda.

Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (MHTI) tahlillariga ko‘ra, aholining o‘zini o‘zi band qilish darajasi 2020-yildagi 4,2 foizdan 2023-yilda 18,1 foizga yetgan bo‘lib [3], bu ko‘rsatkich hududlar kesimida sezilarli tafovutga ega. Masalan, Qashqadaryo viloyatida 7 baravar, Jizzax viloyatida 6 baravar o‘shish qayd etilgan bo‘lsa, ayrim hududlarda bu sur‘atlar nisbatan pastligicha qolmoqda.

Ushbu sharoitda mehnat resurslarining tarmoqlar bo‘yicha taqsimlanishi, hududlar kesimidagi bandlik tarkibi hamda bandlik sifatining iqtisodiy samaradorlikka ta‘sirini ilmiy asosda baholash alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi bandlik tuzilmasidagi tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy samaradorlikka ta‘sirini nazariy jihatdan asoslash va amaliy tahlil asosida baholashdan iboratdir. Tadqiqot jarayonida bandlikning sektorlar-aro siljishi, mehnat unumdorligi dinamikasi hamda iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlanadi. Olingan natijalar mehnat bozori siyosatini takomillashtirish, bandlik strategiyalarini ishlab chiqish hamda iqtisodiy

samaradorlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilashda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Bandlik tuzilmasi va uning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri masalasi iqtisodiy nazariya va amaliy tadqiqotlarda uzoq yillardan buyon muhim ilmiy yo‘nalish sifatida qaralib kelinmoqda. Ushbu masala, avvalo, iqtisodiy rivojlanish jarayonida mehnat resurslarining tarmoqlar bo‘yicha taqsimlanishi va undan foydalanish samaradorligini tushuntiruvchi nazariy yondashuvlar doirasida shakllangan. Bandlik va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik klassik va zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda ham muhim o‘rin egallaydi. Xususan, Jon Meynard Keyns o‘zining “Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi” [4] asarida bandlik darajasi yalpi talab bilan chambarchas bog‘liqligini asoslab bergan. Uning fikricha, davlatning faol aralashuvi orqali bandlikni oshirish iqtisodiy inqirozlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham ushbu masala keng tadqiq etilgan. Xususan, Qalandar Abdurahmonov o‘zining “Mehnat iqtisodiyoti” [5] nomli ilmiy asarida bandlikning tarkibiy o‘zgarishlari, mehnat bozori rivoji va ishchi kuchining samarali taqsimlanishi masalalarini chuqur tahlil qilgan. Olimning fikricha, iqtisodiy samaradorlikka erishishda mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, bandlikning sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash va zamonaviy kasblarga moslashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Bandlik tuzilmasining iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini o‘rganishda mehnat bozori sementatsiyasi masalasi ham keng yoritilgan. Ayrim ilmiy manbalarda rasmiy va norasmiy bandlik o‘rtasidagi tafovutlar, yashirin bandlikning iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta’siri asoslab berilgan. Norasmiy sektorda band bo‘lgan mehnat resurslari ko‘pincha past unumdorlik, cheklangan texnologik imkoniyatlar va ijtimoiy himoyaning yetishmasligi bilan tavsiflanadi. Bu holat umumiy iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarining pasayishiga olib kelishi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bandlik tuzilmasi va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi bog‘liqlik keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, ushbu masalaning hududiy xususiyatlari, innovatsion rivojlanish omillari va raqamli iqtisodiyot sharoitidagi o‘zgarishlari yetarlicha chuqur tadqiq etilmagan. Ayniqsa, bandlikning sektorlar-aro siljishi bilan mehnat unumdorligi va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni empirik usullar asosida tahlil qilish dolzarb ilmiy muammo bo‘lib qolmoqda. Mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Mazkur tadqiqot bandlik tuzilmasidagi tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, unda nazariy va empirik tadqiqot usullarining uyg‘unligi qo‘llanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuv asosida shakllantirilib, bandlik tuzilmasi, mehnat unumdorligi va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kompleks tahlil qilishga yo‘naltirildi.

Tadqiqotning nazariy asosini tarkibiy o‘zgarishlar nazariyasi, inson kapitali nazariyasi hamda iqtisodiy o‘shishning zamonaviy konsepsiyalari tashkil etadi. Ushbu nazariy yondashuvlar asosida bandlik tuzilmasidagi sektorlar-aro siljishlar iqtisodiy samaradorlikning muhim omili sifatida qaraldi. Nazariy tahlil jarayonida ilmiy abstraksiya, mantiqiy tahlil va sintez usullaridan foydalanilib, mavjud ilmiy qarashlar umumlashtirildi va tadqiqotning konseptual doirasi shakllantirildi.

Empirik tadqiqotda statistik tahlil usullaridan keng foydalanildi. Xususan, bandlik tuzilmasining iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha taqsimlanishi, mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlari va yalpi ichki mahsulot dinamikasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash maqsadida rasmiy statistik ma’lumotlar asosida vaqt qatori va solishtirma tahlil amalga oshirildi. Bandlik tuzilmasidagi o‘zgarishlarning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini baholashda o‘shish sur’atlari, ulush ko‘rsatkichlari hamda strukturaviy siljish indekslaridan foydalanildi.

Tadqiqot doirasida iqtisodiy-matematik modellashtirish usullari ham qo‘llanildi. Jumladan, iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari (yalpi ichki mahsulot hajmi, mehnat unumdorligi) bilan bandlik tuzilmasini ifodalovchi omillar (tarmoqlar bo‘yicha bandlik ulushi, xizmatlar va sanoat sektoridagi bandlik darajasi) o‘rtasidagi bog‘liqlik regressiya tahlili asosida baholandi. Ushbu yondashuv bandlik tuzilmasidagi o‘zgarishlarning iqtisodiy samaradorlikka ta’sir darajasini miqdoriy jihatdan aniqlash imkonini berdi.


Umuman olganda, mazkur tadqiqot metodologiyasi bandlik tuzilmasining o‘zgarishi va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlikni chuqur va har tomonlama tahlil qilish imkonini berib, ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun mustahkam metodik asos yaratadi.

Mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlari tahlili natijalari bandlik tuzilmasidagi o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi sohalarda bandlik ulushining ortishi mehnat unumdorligining o‘shish sur‘atlarini tezlashtirgan. Aksincha, past unumdorlikka ega tarmoqlarda bandlikning yuqori ulushi iqtisodiy samaradorlikning cheklanishiga olib kelgan. Bu holat bandlikning sifat jihatidan o‘zgarishi iqtisodiy samaradorlik uchun muhim ekanligini tasdiqlaydi.

Yalpi ichki mahsulot dinamikasi bilan bandlik tuzilmasi o‘rtasidagi solishtirma tahlil natijalariga ko‘ra, sanoat va xizmatlar sektorida bandlik ulushining oshishi iqtisodiy o‘shish sur‘atlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan. Xususan, sanoat sektoridagi bandlik ulushining 1 foiz punktga oshishi yalpi ichki mahsulot hajmining o‘shishiga sezilarli hissa qo‘shgani kuzatildi. Statistik korrelyatsiya tahlili natijalari ham bandlik tuzilmasi va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasida musbat bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi.

Shuningdek, bandlik tuzilmasidagi tarkibiy siljishlarni baholash maqsadida strukturaviy o‘zgarish indeksleri hisoblandi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, tarkibiy o‘zgarishlar jadallashgan davrlarda mehnat unumdorligi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori sur‘atlarda o‘sgan. Bu esa bandlik tuzilmasining modernizatsiyasi iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim sharti ekanligini empirik jihatdan tasdiqlaydi.

Umuman olganda, statistik tahlil natijalari bandlik tuzilmasidagi sektorlar-aro siljishlar va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasida barqaror va ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatib, nazariy xulosalarni amaliy jihatdan tasdiqladi.



1-rasm. Mehnat unumdorligi va yalpi ichki mahsulot dinamikasi [6]

2010–2023 yillar davomida yalpi ichki mahsulot (YIM), mehnat unumdorligi hamda YIMning o‘shish sur‘atlari dinamikasi aks ettirilgan. Grafik ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, tahlil qilinayotgan davr mobaynida iqtisodiy samaradorlikning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lgan mehnat unumdorligi izchil va barqaror o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan.


Xususan, 2010 yilda bir ishchiga to‘g‘ri keladigan mehnat unumdorligi 12,4 mln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2013 yilda bu ko‘rsatkich 16,8 mln so‘mga, 2016 yilda 21,7 mln so‘mga yetgan. 2019 yildan boshlab mehnat unumdorligining o‘shishi yanada jadallashib, 32,6 mln so‘mni tashkil etgan. 2021 va 2023 yillarda ushbu ko‘rsatkich mos ravishda 41,2 va 49,8 mln so‘mga yetib, butun davr

davomida qariyb to‘rt baravarga oshgan. Bu holat iqtisodiyotda bandlik tuzilmasining sifat jihatdan o‘zgarishi va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi sohalar ulushining ortib borayotganidan dalolat beradi.

Yalpi ichki mahsulotning o‘shish sur‘atlari esa tahlil davrida nisbatan barqaror bo‘lmagan dinamikani namoyon etgan. 2010 yilda YIM o‘shish sur‘ati 8,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2016 yilda 7,8 foizgacha pasaygan, 2019 yilda esa 5,6 foizga tushgan. 2021 yilda iqtisodiy faollikning tiklanishi natijasida YIM o‘shish sur‘ati 7,4 foizga yetgan bo‘lsa-da, 2023 yilda yana 6,0 foiz darajasida qayd etilgan.

E‘tiborga molik jihati shundaki, YIM o‘shish sur‘atlari ayrim yillarda pasaygan bo‘lishiga qaramasdan, mehnat unumdorligi barqaror ravishda o‘shib borgan. Bu holat iqtisodiy o‘shishning ekstensiv omillardan intensiv omillarga, ya‘ni mehnat resurslaridan samarali foydalanish, texnologik yangilanish va bandlik tuzilmasining takomillashuvi hisobiga ta‘minlanayotganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, 1-rasmda keltirilgan ma‘lumotlar bandlik tuzilmasidagi tarkibiy o‘zgarishlar va mehnat unumdorligi o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Yuqori unumdorlikka ega tarmoqlarda bandlik ulushining ortishi iqtisodiy samaradorlikning oshishiga xizmat qilgan bo‘lib, bu jarayon uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.



2-Rasm. Iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha bandlik tuzilmasining dinamikasi (foizda) [7]

2011–2024 yillar davomida iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha bandlik tuzilmasining o‘zgarish dinamikasi aks ettirilgan. Grafik ma‘lumotlari bandlik tarkibida sezilarli tarkibiy siljishlar sodir bo‘lganini yaqqol ko‘rsatadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, qishloq xo‘jaligida bandlik ulushi butun davr davomida izchil kamayish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Xususan, 2011 yilda ushbu tarmoqda band bo‘lganlar ulushi 34,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2017 yilda 28,9 foizga, 2020 yilda 26,1 foizga, 2024 yilga kelib esa 22,6 foizgacha qisqargan. Mazkur holat qishloq xo‘jaligida mehnat unumdorligining nisbatan pastligi hamda ishchi kuchining boshqa yuqori samarador tarmoqlarga yo‘naltirilayotganligi bilan izohlanadi.

Sanoat tarmog‘ida bandlik ulushi esa tahlil davrida barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon etgan. 2011 yilda sanoatda bandlik ulushi 19,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2017 yilda 22,3 foizga, 2020 yilda 24,5 foizga, 2024 yilda esa 27,4 foizga yetgan. Bu holat mamlakatda sanoatlashtirish jarayonlarining faollashuvi, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi hamda investitsiya faolligining ortishi bilan bevosita bog‘liqdir.

Xizmatlar sohasida bandlik ulushi ham izchil oshib borgan. 2011 yilda ushbu sohada bandlik ulushi 46,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2017 yilda 48,8 foizga, 2020 yilda 49,4 foizga va 2024 yilda 50 foizga yetgan. Xizmatlar sektorining bandlikdagi ulushining oshishi iqtisodiyotning postindustrial

rivojlanish bosqichiga o‘tayotganini, shuningdek, savdo, transport, axborot-kommunikatsiya va moliyaviy xizmatlar sohasining kengayib borayotganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, 2-rasmda aks ettirilgan ma’lumotlar bandlik tuzilmasida qishloq xo‘jaligidan sanoat va xizmatlar sohasiga mehnat resurslarining ko‘chishi kuzatilayotganini tasdiqlaydi. Ushbu tarkibiy siljishlar iqtisodiy samaradorlikning oshishi, mehnat unumdorligining o‘shishi hamda yalpi ichki mahsulot hajmining kengayishi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, bandlik tuzilmasining bunday transformatsiyasi iqtisodiyotning intensiv rivojlanish modeliga o‘tish jarayonini ifodalaydi.

Mazkur tadqiqotda bandlik tuzilmasidagi tarkibiy o‘zgarishlarning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri nazariy va empirik jihatdan tahlil qilindi. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha bandlikning qayta taqsimlanishi iqtisodiy o‘shish va mehnat unumdorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, past unumdorlikka ega bo‘lgan qishloq xo‘jaligi tarmog‘idan sanoat va xizmatlar kabi yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi sohalarga mehnat resurslarining ko‘chishi iqtisodiy samaradorlikning oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Statistik tahlil natijalari 2010–2024 yillar davomida bandlik tuzilmasida sezilarli tarkibiy siljishlar yuz berganini tasdiqladi. Qishloq xo‘jaligida bandlik ulushining izchil kamayishi va sanoat hamda xizmatlar sektorida bandlik ulushining oshishi iqtisodiyotning modernizatsiyalashuvi va diversifikatsiyalashuvi jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bilan birga, mehnat unumdorligining barqaror o‘shishi iqtisodiy o‘shishning intensiv omillar hisobiga ta’minlanayotganidan dalolat beradi.

Empirik model natijalari bandlik tuzilmasidagi o‘zgarishlar iqtisodiy samaradorlikka statistik jihatdan ahamiyatli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Sanoat va xizmatlar sektorida bandlik ulushining oshishi yalpi ichki mahsulot hajmi va mehnat unumdorligining o‘shishiga ijobiy ta’sir qilgani holda, qishloq xo‘jaligidagi bandlik ulushining yuqoriligi ayrim hollarda iqtisodiy samaradorlikni cheklovchi omil sifatida namoyon bo‘ldi. Bu holat bandlikning nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatdan takomillashuvi muhim ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida shuni xulosa qilish mumkinki, bandlik tuzilmasini iqtisodiyotning ustuvor va yuqori samarador tarmoqlariga mos ravishda takomillashtirish uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi. Shu bois, mehnat bozorini rivojlantirish siyosatini ishlab chiqishda kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlash tizimini kuchaytirish, innovatsion va texnologik rivojlanishni rag‘batlantirish, shuningdek, sanoat va xizmatlar sektorida yangi yuqori unumdor ish o‘rinlarini yaratishga alohida e’tibor qaratish zarur.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari bandlik tuzilmasining iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini chuqurroq anglashga xizmat qilib, mehnat bozori siyosatini takomillashtirish hamda iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi «O‘zbekiston — 2030» Strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-158-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. *Mehnat bozori va bandlik bo‘yicha statistik to‘plamlar*. – Toshkent, turli yillar.
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. *Milliy hisoblar tizimi va yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichlari*. – Toshkent, turli yillar.
4. Abdurahmonov Q.X. *Mehnat iqtisodiyoti*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
5. Rasulov S.N. *Mehnat bozori va bandlikni tartibga solish*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
6. Mullajonov F.M. *Iqtisodiy o‘shish va tarkibiy o‘zgarishlar*. – Toshkent: Innovatsiya.
7. Kuzieva G.R. *Tadbirkorlik faoliyatida iqtisodiy samaradorlikni oshirishning nazariy asoslari*. – Toshkent, 2023.
8. Lewis W.A. Economic development with unlimited supplies of labour. *The Manchester School*, 1954, Vol. 22(2), pp. 139–191.
9. Kuznets S. *Modern economic growth: Rate, structure and spread*. – New Haven: Yale University Press, 1966.